O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
XIZMATINI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI

TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI

MAKTABGACHA VA
MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI

ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI
PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY
INSTITUTI

# Strategik loyihalarni belgilangan mezonlar asosida tahlil qilish va baholash



INTENSIV RIVOJLANISH KURSI

# Kursning maqsadi

Rahbar kadrlarda strategik loyihalarni xalqaro mezonlar va raqamli analitik vositalar yordamida baholash kompetensiyalarini rivojlantirish

KUTILAYOTGAN NATIJALAR · MASHG‘ULOT YAKUNIDA RAHBARLAR...

01 Loyihalarni Kaplan-Norton BSC va OKR freymvorklari orqali 4 yo‘nalishda kompleks tahlil eta oladilar.

02 Loyihaning oddiy ijrosidan uzoq muddatli ta’sir va barqarorlik farqini aniq belgilaydilar.

03 Moliyaviy resurslar va jamoa vaqti sarfini aniq metrikalar orqali baholay oladilar.

04 Xatarlar matritsasi orqali inqiroz sabablarini prognoz qilib, Contingency Plan tuzadilar.

05 Power BI, Trello va AI dashboard yordamida subyektiv baholashdan xoli qarorlar qabul qiladilar.

# MASHG'ULOTNING TARKIBY QISMI
# Reja

1

**QISM 1 • XALQARO METODOLOGIK ASOSLAR**

Zamonaviy ta'lim menejmentida strategik loyihalar va ularnı baholashning xalqaro metodologik asoslariSMART • OKR • BCG • Kaplan-Norton BSC • PMBOK loyihaning hayotiy sikli.

2

**QISM 2 • BAHOLASH MEZONLARI**

Maktabni rivojlantirish strategik loyihalarini tahlil qilish mezonlariTa'sir (Impact) • Barqarorlilik (Sustainability) • Resurs samaradorligi (ROI / ROET) • Pre-Mortem.

3

**QISM 3 • RAQAMLI VOSITALAR**

QISM 3 • RAQAMLI VOSITALARRaqamli AKT vositalari va Data-Driven LeadershipTrello • Notion • Power BI • EdData Analytics • AI-Assisted Educational Analytics.

# Xalqaro Metodologik Asoslar

**Transformatsiyaviy liderlik — bu tashkilotlar va jamoalarda o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun muhim bo‘lgan boshqaruv usulidir. Bu yondashuvda liderlar o‘z jamoasining motivatsiyasini oshirish, ularni ilhomlantirish va yangi fikrlarga ochiq bo‘lishlariga yordam beradi.**

**Ideal ta’sir** - liderlar yuqori professionalizm va strategik qarorlar bilan jamoa oldida namoyish etadi, ular model bo‘lib xizmat qiladi.

**Inspiratsion motivatsiya** - liderlar jamoani aniq maqsadlar va viziyalar bilan ilhomlantiradi, ularni harakatga keltiradi.

**Intellektual rag‘batlantirish** - kreativ fikrlash va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi, jamoalarni yangi yondashuvlarga undaydi.

**Individual e’tibor** - har bir a’zo individual ehtiyojlariga e’tibor qaratib, rivojlanish uchun sharoit yaratadi. Bu yondashuv yordamida liderlar tashkilotlarni o‘zgarishga tayyorlaydi va muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o‘ynaydi.

## SMART mustahkamlik uchun • OKR oʻzgarish uchun

**Loyiha menejmentda maqsadlarni toʻgʻri shakllantirish muvaffaqiyatning 50%ini tashkil etadi.**

SMART - Aniq, xavfsiz, 100% erishiladigan natijalar

Specific – Aniq bir ma’noli ifodalangan maqsad

Measurable – Oʻlchanadigan: miqdori yoki sifat metrikaga ega

Achievable – Erishiladigan: mavjud resurs va salohiyatga mos

Relevant – Dolzarb: rivojlanish strategiyasiga muvofiq

Time-bound - Vaqtga bogʻlangan: aniq boshlanish va yakun muddati bor

OKR - Ambitsioz, transformatsion, ilhomlantiruvchi maqsadlar

FOKUS – Ambitsioz, transformatsion oʻzgarish

SIKL – Choraklik - muntazam moslashish

YUTUQ MEZONI - 60–70% bajarilish yuqori koʻrsatkich (100% maqsad juda past)

DINAMIKA - Yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga - gorizontal hamkorlik

TUZILMA - Objective (bitta ilhomli maqsad) 3–5 Key Results (oʻlanadigan natijalar)

# Objective(Maqsad) + Key Results(Kalit Natija) maktab amaliyotida

Maktabda o‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini oshirish bo‘yicha respublika miqyosidagi yetakchi innovatsion markazga aylanish.

KN: 7-11-sinf o‘quvchilarining PISA uslubidagi test topshiriqlarini bajarish sifat ko‘satkichi oshirish. (45% → 70%)

KN: Fan o‘quvchilarini HATS (Higher Order Thinking Skills) metodikasi bo‘yicha sertifikatlash. (≥ 80%)

KN: Maktabda 3 ta fanlararo STEAM va debat klublari faoliyatini yo‘lga qo‘yish. (60%)

# Strategiyasini 4 ta o‘zaro bog‘liq rakursda yaxlit modellashtirish

1. Moliyaviy va resurs perspektivasi - Byudjet, grantlar, homiylik mablag‘larini strategik loyihaga yo‘naltirish samaradorligi (QAYERDA: BIR O‘QUVCHIGA INVESTITSIYA UNUMDORLIGI)
2. Manfaatdor tomonlar perspektivasi – O‘quvchilar, ota-onalar, OTMlar, mahalliy jamiyat va MMTVning qanoat darajasi (QAYERDA: NET PROMOTER SCORE (NPS))
3. Ichki pedagogik jarayonlar - Dars berish uslubi, baholash tizimi, to‘garaklar va metrologik ta’minot samaradorligi. (QAYERDA: INTERFAOL DARSLAR ULUSHI)
4. O‘sish va o‘rganishInson kapitali, kasbiy sertifikatlar, psixologik iqtim. (QAYERDA: KADRLAR QO‘NIMSIZLIGI)

# Loyihaning 5 bosqichli hayotiy sikli

2.2

**SMART + OKR + BSC + PMBOK sintezi maktab rahbariga ilmiy metrikalar bilan tasdiqlangan strategik tizim beradi**

**1. Tashabbus:** *Konseptualizatsiya*
- Muammo aniqlanadi (masalan: aniq fanlarga qiziqish pasayishi).
- Loyiha pasporti shakllantiriladi va rahbar biriktiriladi.

**2. Rejalashtirish:** *Tizimli*
- Ishlar strukturasi tuziladi.
- Resurslar, Gantt jadvali, byudjet va xatarlarni boshqarish rejasi tasdiqlanadi.

**3. Ijro etish:** *Amaliyot*
- Ishchi guruhlar safarbar etiladi, treninglar va moddiy-texnik xaridlar amalga oshiriladi.
- Jamoada samarali kommunikatsiya va hamkorlik ta’minlanadi.

**4. Monitoring:** *Nazorat*
- KPI ko‘rsatkichlari bo‘yicha loyihaning rejadan og‘ishi tahlil qilinadi.
- Zarur bo‘lsa operativ tuzatishlar kiritiladi.

**5. Yakunlash:** *Institutsionalizatsiya*
- Natijalar baholanadi, tahliliy hisobot tayyorlanadi.
- Muvaffaqiyatli amaliyotlar SOP (doimiy ish rejimi)ga o‘tkaziladi.

- TA’SIR
- BARQARORLIK
- SAMARADORLIK

**KOʻP UCHRAYDIGAN XATOLAR: “5 ta seminar oʻtkazildi”, “30 oʻqituvchi oʻitildi”, “10 ta interaktiv doska oʻrnatildi” — bu shunchaki Outputs, loyiha muvaffaqiyati emas.**

## 5 BOSQICHLI MANTIQIY ZANJIR · INPUTS → IMPACT

**1. Inputs — RESURSLAR**
- Loyihaga jalb etilgan moliya, vaqt, inson va texnik resurslar.
- *Misol: grant mablagʻi, oʻqituvchilar vaqti, jihozlar.*

**2. Activities — HARAKATLAR**
- Treninglar oʻtkazish, dasturiy ta’minot yaratish, metodik materiallar tuzish.

**3. Outputs — TOʻGʻRIDAN TOʻGʻRI MAHSULOT**
- Oʻqitilgan oʻqituvchilar soni, sotib olingan uskunalar, oʻtkazilgan darslar soni.

**4. Outcomes — OʻRTA MUDDATLI NATIJA**
- Oʻqituvchilarning dars berish uslubi oʻzgargani, interfaol metodika amalda qoʻllanilishi, oʻquvchilar qiziqishi ortishi.

**5. Impact — STRATEGIK TA’SIR**
- PISA, PIRLS, MOCK va davlat imtihonlaridagi barqaror oʻsish, maktab reytingi koʻtarilishi, bitiruvchilarning muvaffaqiyati.

## “ Loyiha effekti”dan barqaror natijaga

### BARQARORLIK 3 MEZON BO‘YICHA BAHOLANADI

1. INSTITUTIONAL BARQARORLIK: Loyiha natijasida yaratilgan yangi usul va tizimlar maktabning doimiy ish tartibiga va Maktab Rivojlantirish Dasturiga qanchalik chuqur integratsiya qilindi? (RAHBAR AMALI: Loyiha mexanizmlari Pedagogik Kengash qarorlari va ichki nizomlarida mustahkamlanishini ta’minlash.

2. INSON KAPITALI BARQARORLIGI: Loyiha davomida pedagoglar va ma’muriyat tomonidan egallangan yangi Yumshoq va Qattiq ko‘nikmalar tashqi ekspertlar ketganidan keyin ham saqlanib qoladimi? (MODEL: “Train the Trainers” Maktabning ichki metodistlari va yetakchi o‘qituvchilari jamoani rivojlantirishda davom etishlari shart.)

3. MOLIYAVIY BARQARORLIK: Loyiha yakunlangach uni saqlab turish uchun ketadigan xarajatlar (dasturiy ta’minot litsenziyalari, texnik xizmat) maktab byudjetiga to‘g‘ri rejalashtirilganmi?

## Pul va vaqt — ikki qimmatli resursning unumdorligi

**Har bir pul birligining ta’lim sifatiga qo‘shgan samarasi. Maktabda ko‘pincha SROI (Social ROI) sifatida namoyon bo'ladi.**
**Ta’limda tiklab bo‘lmaydigan resurs - vaqt. ROET vaqt sarfini kutilgan pedagogik natijaga mutanosibligini o‘lchaydi.**



# O‘zgarishlarni boshqarish

GARY KLEIN va HARVARD BUSINESS xulosalari:

**Pre-Mortem Analysis**

“Tasavvur qilaylik, 1 ildan keyin bu loyihamiz to‘liq inqirozga uchradi va barbod bo‘ldi. Buning asosiy sabablari nimalarda edi?”

AN’ANAVIY POST-MORTEM: Hodisa sodir bo‘lgach sabab o‘rganiladi. Xato allaqachon ro‘ bergan.

PRE-MORTEM YONDASHUVI: Loyiha boshlanmay turib zaif nuqtalar bashorat qilinadi. Contingency Plan tuziladi.

KADRLAR YETISHMOVCHILIGI · O'QITUVCHILAR QARSHILIGI · RESURS UZILISHI OLDINDAN KO'RILADI

# Ma’lumotga asoslangan rahbarlik

## Faktdan tavsiyagacha — 4 bosqichli analitik

***Zamonaviy maktab rahbari “loyiha yomon o‘tmadi”, “tadbir yoqdi” kabi subyektiv baholardan xoli bo‘lishi va aniq raqamlashtirilgan ma’lumotlarga tayanishi zarur.***

**1-BOSQICH**

**Tavsifiy analitika “NIMA YUZ BERDI?”** Asosiy faktlarni qayd etish - hozirgi holatning aniq surati. (MISOL: MOCK imtihonida o‘quvchilarning 40% past ball oldi.)

**2-BOSQICH**

**Tashxisiy analitika “NIMA UCHUN YUZ BERDI?”** Muammoning tub ildizini aniqlash — sabab-natija tahlili. (MISOL: Past ball olganlar STEAM va amaliy topshiriqlarni bajarmagan.)

**3-BOSQICH**

**Prognostik analitika “NIMA YUZ BERISHI MUMKIN?”** Kelajakdagi xatarlarni modellashtirish - trendlar prognozi. (MISOL: Metodika o‘garmasa, respublika baholashida maktab 15% tushadi.)

**4-BOSQICH**

**Tavsiyaviy analitika “NIMA QILISH KERAK?”** Strategik loyiha doirasida aniq, manzilli va raqamli yechim. (YECHIM: O‘qituvchilarni darsni diagnostik tahlil qilish bo‘yicha intensiv modulda o‘qitish.

**HAR BOSQICHDA STRATEGIK QIYMAT OSHADI**

# Ma’lumot oqimidan strategik qarorgacha

1. Ma’lumotlarni yig‘ish: Baholar, davomat, to‘garak qamrovi, o‘qituvchi dars tahlili va so‘rovnomalar raqamli shakllarda muntazam yig‘iladi. (Google FormsLMS platformalari, Elektron kundalik)
2. Saralash va tizimlash: Subyektiv va chalkash ma’lumotlar tozalanadi, ular yagona indikatorlar tizimiga keltiriladi. (NATIJA: Ishonchli, taqqoslama mumkin bo‘lgan raqamli baza)
3. Vizualizatsiya Statistika: Power BI yoki Excel panelida tushunarli indikatorlar shakliga keltiriladi. MAQSAD (Yashil) XATAR (Sariq) INQIROZ (Qizil)
4. Strategik qaror “Qizil” va “sariq” hududlar bo‘yicha tezkor Pedagogik Kengash chaqiriladi, resurslar qayta taqsimlanadi. (NATIJA: Data-Driven School Management modeli amaliyotga to‘liq tatbiq etiladi.)

# Intuitiv boshqaruvdan — faktlarga tayanadigan maktabga

1. FREYMVORKLAR SINTEZISMART + OKR + BSC + PMBOK - ilmiy tasdiqlangan strategik tizim.

2. OUTPUT ≠ IMPACT Loyiha barqarorligi va uzoq muddatli ta’sirini alohida baholash.

3. RESURS SAMARADORLIGIROI va ROET matritsasi — pul va vaqtni bir vaqtda o‘lchash.

4. DATA-DRIVEN SCHOOL Dashboard va AI-analitika — zamonaviy menejmentning yadrosi.

# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT